

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10878291>

Rasulov Bekzod Uktamovich

JDPU, Pedagogika va psixologiya fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha dekan o'rinnbosari

Annotatsiya. *Pedagogik prognostika ta'limgan ustuvor sohasi sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan uzlusiz ta'limgan tizimini yangidan-yangi pedagogik nazariyalar negizida vujudga kelgan ta'limgan modellari texnologiyalari bilan qurollantirish asosida kadrlar sifatini oshirishga yo'naltirilgandir. Pedagogik prognostika o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda ta'limgan texnologiyalarini tanlaydi.*

Kalit so'zlar. *Prognostika, bashoratlash, ta'limgan, o'quvchi, talaba, individual xususiyatlari, pedagogik prognostika*

Аннотация. Педагогическая прогнозистика как приоритетное направление образования направлена на повышение качества кадров на основе вооружения системы непрерывного образования, служащей развитию государства и общества, технологиями образовательных моделей, созданных на основе новых педагогических теорий. . Педагогическая прогнозистика подбирает образовательные технологии с учетом возрастных особенностей и динамики личности обучающегося.

Ключевые слова. Прогностика, прогнозирование, образование, ученик, студент, индивидуальные особенности, педагогическая прогнозистика

Abstract. *Pedagogical prognostics, as a priority field of education, is aimed at increasing the quality of personnel on the basis of arming the continuous education system that serves the development of the state and society with the technologies of educational models created on the basis of new pedagogical theories. Pedagogical prognostics selects educational technologies taking into account the age characteristics and dynamics of the student's personality.*

Key words. *Prognostics, prediction, education, pupil, student, individual characteristics, pedagogical prognostics*

Bugungi kunda ta'limgan sifatiga erishishda pedagogik prognostikaning o'rni beqiyos hisoblanadi. U o'zining aniq belgilab olingan maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiq etayotgan muammolarning mantiqiy asoslari, rivojlanish qonuniylari, o'zining tayanch metodologiyasiga ega bo'lgan pedagogika fanining muhim tarmog'i sifatida namoyon bo'lmoqda. Pedagogik prognostika zamонавија та'limgan jarayonining ustuvor sohasi sifatida davlat va jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shadigan, shuningdek uzlusiz ta'limgan

tizimini yangidan-yangi pedagogik nazariyalar negizida vujudga kelgan ta'lim modellari texnologiyalari bilan qurollantirish asosida kadrlar sifatini oshirishga yo'naltirilgandir. Pedagogik prognostika o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini tanlash imkoniyatini beradi. Tanlab olingen muayyan ta'lim texnologiyalari doirasida o'quvchi-talabalarga turli darajadagi tushunchalarni hamda mujassamlashgan bilimlarni taqdim etish yo'llarini, shakl va vositalarini taklif qiladi. Muayyan bir pedagogik texnologiyani nazariy jihatdan asoslagona pedagogik prognostika o'quvchi hamda o'qituvchining jonli faoliyat ko'rsatishni ta'minlashga, uning erkin fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutmog'i lozim.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalari zamonaviy fikrlovchi, o'quvchilar bilan muloqotga kirishuvchan bo'lishi lozim, shuningdek, turli vaziyatlarda ishlashga qodir bo'lган yangi tipdagi o'qituvchini tayyorlashni taqozo etmoqda. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat umumiy madaniyat darajasiga, psixologik va pedagogik malakaga, zamonaviy ma'lumotlar hajmi bilan ishlash qobiliyatiga va turli vaziyatlarni hal qilishda noan'anaviy yondashuvga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik proqnozlashning vazifalari eng umumiy shaklda quyidagilardan iborat:

- kelajakda ta'lim rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari;
- yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, ularning bilim darajasiga qo'yiladigan yangi talablar;
- umuman ta'lim tizimida va uning alohida tarkibiy qismlarida zaruriy mazmuniy, tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlar;
- o'quvchilarning shaxsiy fazilatlariga doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy talablar munosabati bilan ta'lim faoliyatini optimallashtirish imkoniyatlari va boshqalar.

Proqnozlash malakasi o'qituvchiga o'quv jarayonini tashkil etish, tuzilma va mazmundagi mumkin bo'lган o'zgarishlarni modellashtirish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanishda maqsadli ravishda o'z vaqtida tuzatishlar kiritishni hamda kelajakdagi kasbiy va pedagogik faoliyatini rejallashtirishi lozim.

Prognostik tadqiqotlar natijasida olingen ilg'or ma'lumotlar nafaqat uzoq kelajakda o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasini tashkil etish, tuzilma va mazmunidagi o'zgarishlarni oldindan ko'rishga, balki bashorat qilingan narsaga maqsadli o'tishga imkon beradigan vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aynan shu holat pedagogikada maqbul qarorlar qabul qilishda bashoratli yondashuvni qat'iy asoslaydi.

Ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab ta'limida pedagogik proqnozlash muammolarini amaliy ishlab chiqish va hal etish darajasi, shuningdek, o'qituvchilarning proqnoz faoliyatiga tayyorlik darajasi zamonaviy talablarni hisobga olgan holda yetarli emas.

O'qituvchilarning bashoratli faoliyatini takomillashtirish quyidagi hollarda muvaffaqiyatli amalga oshadi:

- pedagogik prognozlash pedagogik malakaning eng yuqori darajasining namoyon bo'lishi va o'qituvchilarning kasbiy mahoratining tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur;
- diagnostika o'qituvchining bashoratli faoliyatining boshlang'ich va yakuniy bosqichi bo'lib xizmat qiladigan pedagogik faoliyatning alohida turi sifatida ko'rib chiqish zarur;
- o'qituvchilarni uzlusiz prognozlash faoliyatiga yo'naltirish, pedagogik prognozlashning fundamental amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirish zarurati va qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligini tashkil etish zarur.

Pedagogik bashorat - bu pedagogik malakaning eng yuqori darajasining namoyonidir va o'qituvchining shaxsiy fazilatlari (sezgi, empatiya, bolalarga muhabbat va boshqalar), pedagogik qobiliyatlar (kommunikativ, aks ettiruvchi, bashorat qilish va boshqalar) mavjudligini nazarda tutadi, shuningdek, bashorat qilish qibiliyatları (umumiyligida va maxsus), bu unga o'qitish faoliyatida kompleks prognozlash tizimini amalga oshirish imkonini beradi.

O'qituvchining bashoratli faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilar shaxsining rivojlanishini bashorat qilish (uning fazilatlari, his-tuyg'ulari, irodasi va xulq-atvori, rivojlanishi mumkin bo'lgan og'ishlar, axloqiy xatti-harakatlar va boshqalar),
- o'quvchilar jamoasining rivojlanishini prognozlash, o'quvchilarning o'zini tutish tizimi, talabalar o'rtasidagi munosabatlar;
- pedagogik jarayonning borishini bashorat qilish (talabalarning yangi materialni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari, o'qitish va tarbiyalashning muayyan usullari va vositalaridan foydalanish natijalari va boshqalar).
- bashorat qilish ko'nikmalari psixologik, pedagogik va uslubiy bilimlarni amaliyotda ongli ravishda qo'llash asosida bashorat qilish muammolarini hal qilishga qaratilgan aqliy va amaliy harakatlar majmuasini o'zlashtirishni anglatadi.

O'qituvchining bashoratli faoliyatini takomillashtirish jarayonining samaradorligi didaktik shartlar to'plami bilan ta'minlanadi. Bular bashorat qilish faoliyati va uning natijalariga qadriyat munosabatini shakllantirish, ijodiy tadqiqot jarayonida ishtiroy etish, umumiyligida va maxsus prognoz ko'nikmalarini izchil rivojlantirish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Andreev V.I. Pedagogika visshey shkoli. Innovatsionno-prognosticheskiy kurs: Uchebnoe posobie. – Kazanь: Центр инновационных технологий, 2006.
2. Andreev V.I. Konseptualnaya pedagogicheskaya prognostika: Monografiya. – Kazanь: Sentr innovacionnix texnologiy, 2010.
3. Bezrukova B.C. Pedagogika. Proektivnaya pedagogika.– Ekaterinburg.: Delovaya kniga, 2006. 344 s.
4. Ditrix Ya. Projektirovaniye i konstruirovaniye: Sistemnyi podxod - M.: Mir, 2001. 92 s.

5. Karmanchikov A.I. Logika pyedagogicheskogo prognozirovaniya. Mono-grafiya. 2012. 83 s.
6. Safarova R., Musayev U. va b. Umumiyl o'tra ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari. –T.: Fan, 2008. 222 b.